



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI ZAMONAVIY USULLARDA TASHKIL ETISH TUR VA SHAKLLARI

Qo'shnazarova Nozima Maxmutjon qizi

GulDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590384>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Informatsion texnologiya,
muammoli o'qitish
texnologiyasi, o'qitish
usullari tasnifi, interfaol,
o'yinli texnologiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu ishda boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan o'qitishning zamonaviy usullari, o'quv materiallarini yangicha talqin etish, o'qitish jarayoniga yangi informatsion texnologiyani kiritish, qo'llanilayotgan texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi yorib berilgan. Shuningdek, muammoli o'qitish texnologiyasi va o'qitishning jadallashtirish texnologiyasiga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan o'qitishning zamonaviy usullari pedagogik texnologiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham texnologiya tushunchasi ustida alohida to'xtalib o'tamiz. "Texnologiya" tushunchasi fanga dastlab 1872 - yillarda kirib kelgan bo'lib, yunoncha "texnos" - hunar, san'at va "logos" fan so'zlaridan tashkil topgan bo'lib hunar fani» ma'nosini anglatadi. Ammo, bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon bu -mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mashg'ulot yaratish sohasidagi qo'llaniladigan usul va metodlar yig'indisi hisoblanadi. Demak, bu ta'rifni tatqiqot ishimizning mavzusiga ko'chirish mumkin bo'lsa, unda pedagogik texnologiya - o'qitishning yangicha usuli bo'lib, ta'lim va chuqur bilim berishga, ularni mustahkamlashga, o'quvchilar

bilimdonligini oshirishga qaratilgan jarayon desak xato bo'lmaydi.

Pedagogik texnologiyaga keng ta'rif berish uchun ilmiy izlanishlar talab etiladi. Sh.Nuriddinov, A.Abdujabborovlarning fikricha, pedagogik texnologiya:

- o'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash;
- materialni yangicha talqin etish;
- o'qitishda yangi informatsion texnologiyani kiritish jarayonidir.

Yapon olimlari esa pedagogik texnologiyaga o'qitishni ta'minlovchi oqilona yo'l deb baho beradilar. Yuqorida biz pedagogik texnologiyani ilg'or usuli orqali o'quv maqsadlariga garovli erishish mumkin deb baholadik.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur



o'zlashtirishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy

faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro

bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul - metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

O'qitish usullariga muayyan talablar qo'yilib, ular quyidagilardan iborat:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarliliigi o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul

qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarur.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarni puxtaligi va asosligi.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

O'qitish usullarini quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operatsiyalarni tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va o'quvchilar o'z-o'zini nazorat qilish usullari;

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosa batlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlarida bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogikada va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tatqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador usullarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo, umumiy ta'lim maktabiga, xususan boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan yangi talablar o'qitishning usullarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari



mavjud va ularning aniq sonini belgilab bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, erkin va teran fikrlashga, o'z fikrlarini ravon ifodalashga o'rgatishning zamonaviy usullaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Bolalarning barkamol avlod bo'lib etishishida so'zlashishi madaniyati, to'g'ri va mantiqli gapira olish qobiliyati bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohotlarimizning markazida o'quvchining ta'lim jarayonining sub'ekti - faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga, albatta, "Interfaol" atamasi - interfaol usullarni qo'llash orqali erishiladi. Ingilizcha «interaction o'zaro ta'sirlanish (yoki interaction o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyat yoki muammoli o'zaro muloqotda, o'zaro muomalada, o'zaro bahs, munozara, debat usulida, fikrlashish asnosida, hamjihatlik bilan hal etish ma'nosini anglatadi. Boshqaruv faoliyatiga nisbatan olganda, interfaol usul jamoaning o'z ichki potentsialidan, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z-o'zini boshqarish, jamoa tashabbusini, innovatsion (yangi) texnologiyalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va joriy qilish tushuniladi.

Ta'limda interfaol metod - bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Bugun fan, texnika va san'at jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, ijtimoiy holat o'zgarayotgan davrda maktablarda ta'limni xususan, boshlang'ich ta'limni mazmun jihatidan yangicha o'qitish zarurat va zamon talabidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Muammoli o'qitish texnologiyasi.
2. O'yinli texnologiyalar.
3. Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar.
4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari.
5. Modulli texnologiyalar.
6. O'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi.
7. O'qitishning jadallashtirish texnologiyasi.
8. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir.

Muammoli o'qitish texnologiyasi

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tadbqiq etilishi muammoli ta'limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi. Muammoli ta'limning asoiy maqsadi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tadbqiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli ta'lim o'zining maxsus tushunchalariga ega bo'lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg'ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo'lmaydi. Muammoli ta'lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega: Muammo; muammoli savol; muammoli vazifa;



muammoli topshiriq; muammoli vaziyat. Muammoli ta'limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha "problem" so'zidan olingan bo'lib, vazifa, topshiriq degan ma'noni anglatadi. Tayyor javobi bo'lmagan, o'rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi. Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi: shaxsiy muammolar, jitmoy muammolar, ta'lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o'ziga xos echim yo'llariga ega. Ta'limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Muammoli ta'limning keyingi asosiy muammoli savol sanaladi. Muammoli savol tafakkur qilish yo'li bilan izlangan noma'lumni topishni ta'minlaydigan so'roq bo'lib, alohida holda muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo'lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. «Nima uchun, nima sababdan, buni qanday izohlab berasiz, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog'liq holda qo'yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi.

Muammoli vazifa - sharti aniq bo'lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir. Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin.

Muammoli topshiriq - o'qituvchi, ta'lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o'quv topshirig'idir. Muammoli topshiriq esa o'z navbatida muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat - sub'ektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda

aqliy qiyinchilikni paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga xalaqit beradigan yangi bilim va harakat usularini izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi.

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun birinchi galda o'quvchi bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun qo'yiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritiladi, ma'lum xulosalar chiqariladi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin:

1. Chaqiruv fazasi.
2. Anglash fazasi.
3. Fikrlash fazasi.

To'g'ri tashkil etilgan dars o'z samarasini beradi, ammo har bir bosqichda qo'llaydigan usullarni o'rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Shunday interfaol usullardan biri -«INSERT» jadvalidir.

«Insert» - o'qish davomida o'z shaxsiy tushunishlarini faol ko'rib chiqishga yordam beruvchi kuchli qurol hisoblanadi. O'quvchi o'qiyotganini oxiriga kelib, u o'qigan matndan hech narsani eslay olmasligi holati ko'pchilik o'quvchilar uchun

odatiy hol bo'ladi, shuning uchun matnni o'qiyotganda faolligini to'plab turish uchun "Insert" yordam beradi. «Insert» fikrlar bosqichini amalga oshirish, idrok etish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'yinli texnologiyalar

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.



O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikdagi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan vazifalarni bajarishiga bag'ishlangan bo'ladi: maftunkorlik, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, davolovchilik, kommunikativlik, tashxis, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakter "ijod maydoni" ga ega bo'ladi. Tatqiqotchilar o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik,

tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O'yinning didaktik maqsadi - bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarining rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi-mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma'naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashni topish, xayol, jodiy qobiliyat, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi - jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, extiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va muloqotga o'rgatishni nazarda tutadi.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiya

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar o'z metodlariga

ega. Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lim uchun" konsortsiumi tomonidan amalga oshiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozisi" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Konsortsium a'zolari: Xalqaro o'qish assotsiatsiyasi, Xobart va Uilyam Slimns kollejlari va Shimoliy Ayova Shtat universiteti. Bu loyihani Nyu-York Ochiq jamiyat instituti va Markaziy Osiyo va Sharqiy Evropadagi Soros fondi mablag' bilan ta'minlaydi.

Fikrlash - o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy fikrlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Izn. Tanqidiy fikrlash erkin bo'lishi uchun o'quvchilar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim.

Rang - baranglik. O'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va ilg'or g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-baranglik fikr va g'oyalar yakka - yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi.

Faollik. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, o'quvchilar sustkash tinglovchilar hisoblanishadi, chunki ular o'qituvchi bilimli, bizning bilimimizga o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan bo'ladi. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorgarligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi o'quvchilarni rag'batlantirib turish joizdir.



Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri o'quvchining fikrlash jarayonini qadrlashidir. Bunda o'quvchilar o'z tengdoshlarining fikrlarini ham hurmat qilmog'i lozim.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida o'qituvchi o'quvchilarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdimog'i lozim.

O'zaro fikr olishuv. Fikrlash jarayoni o'quvchilarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. O'quvchilarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'roqchiligiga asos bo'ladi. O'zaro fikr olishishda o'quvchi o'z tengdoshlari fikrini diqqat bilan tinglashi, o'zining qarashlari, fikrlarini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarning fikrlarini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi
O'qish va o'qitish ishlari samaradorligini oshirish, o'quvchilarning tahsil olish va fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, bilish faoliyatini faollashtirish ko'p jihatdan hamkorlikda o'qitish usullaridan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Bu usulning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

Ushbu g'oya turli mamlakatlarda, jumladan Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavkin (1990, Minnesot universiteti professori R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharon (1998) tomonidan ishlab chiqilgan.

O'qitishning tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan texnologiyasi
G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil

etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlami ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

Tabaqalashtirilgan ta'limning zamirida individuallashtirish yotadi va u har bir bolaning o'ziga xos imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

O'quvchilar bilan individual yondashib ta'lim berganda ular qobiliyat va imkoniyatlari hisobga olganligi sababli dastur materiallari to'liq o'zlashtiriladi. Natijada ularning o'qishga, fanga bo'lgan qiziqish va faolligi oshadi. Ta'lim mazmuni o'quvchilar kuchiga mos ishlanganligi sababli ular tomonidan o'quv yuklamalarini o'zlashtirishida zo'riqish ro'y bermaydi, faol o'zlashtiruvchilarning esa chuqur va keng bilim olishga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda tabaqalashtirilgan ta'lim ancha achinarli holatda, ya'ni ta'lim muassasalarida bu ta'lim texnologiyasiga e'tibor berilmaydi. Bu esa yana bir yechimi kutilayotgan dolzarb masaladir.

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi
Bu texnologiyani V.F. Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy etdi. U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ochib beradi.

Bu texnologiya ushbu metodik usullarni o'zida jamlaydi: "desand" metodi, "tanlov asosida misol-masala echish", "vazifalar ichida cho'milmoq", "ochiq fikrlar davri", "zanjir", "oltinchi ball" va boshqa usullar.



Yuqorida berilgan barcha ta'lim texnologiyalar mazmun, mohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib shuni aytish joizki, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va uni amalda qo'llash o'z-o'zidan

amalga oshirilmaydi. Qo'llanmoqchi bo'lgan texnologiyalarning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga qanchalik samarali natija berishi kafolatlanganidan so'ng, bu texnologiya amaliyotga joriy etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining: "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016-yil 15-sentabr. 132(6826)-son.
3. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2017, 5-son, 38-bet.
4. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang'ich ta'lim. "O'qituvchi", 1998, 4-son, 16-21-betlar.